



SOCIAL CONSCIOUSNESS AND CIVILIZATION: HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL CATEGORIES

Zafar Botirov

*Researcher at Samarkand State Pedagogical Institute
Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: digital information, information flow, consciousness, dispersion of consciousness, fragmentation, social consciousness, cultural consciousness, individual, society, social groups, information and communication technologies, internet resources, diversification, spirituality, psychological impact.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

Abstract: This article analyzes the processes of digital information flow and the dispersion (diffusion) of consciousness. It examines the impact of modern information and communication technologies and internet resources on social consciousness, as well as issues of information fragmentation and the diversification of consciousness. The article also analyzes the moral, cultural, and psychological significance of information flow in the context of individuals, social groups, and society. This study helps students and researchers gain a deeper understanding of the formation of consciousness and the processes of the spread of social consciousness in the digital age.

IJTIMOYIY ONG VA SIVILIZATSIYA: TARIXIY VA FALSAFIY KATEGORIYALAR

Zafar Botirov

*Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
Samarqand, O'zbekistan*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamli axborot, axborot oqimi, ong, ongning dispersiyasi, fragmentatsiyalashuv, ijtimoiy ong, madaniy ong, shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruhlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet resurslari, diversifikatsiya, ma'naviyat, psixologik ta'sir.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli axborot oqimi va ongning dispersiyasi (tarqalishi) jarayonlari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet resurslarining ijtimoiy ongga ta'siri, shuningdek, axborotning fragmentatsiyalashuvi va ongning diversifikatsiyasi masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamiyat kontekstida axborot oqimining ma'naviy, madaniy va psixologik ahamiyati ham tahlil

qilinadi. Mazkur tadqiqot o'quvchi va ilmiy xodimlarga raqamli davrda ongning shakllanishi va ijtimoiy ongning tarqalishi jarayonlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

ОБЩЕСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ И ЦИВИЛИЗАЦИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ КАТЕГОРИИ

Зафар Ботиров

Исследователь

Самаркандского государственного педагогического института

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: цифровая информация, информационный поток, сознание, дисперсия сознания, фрагментация, общественное сознание, культурное сознание, личность, общество, социальные группы, информационно-коммуникационные технологии, интернет-ресурсы, диверсификация, духовность, психологическое воздействие.</p>	<p>Аннотация: В данной статье анализируются процессы цифрового информационного потока и дисперсии (рассеивания) сознания. Рассматривается влияние современных информационно-коммуникационных технологий и интернет-ресурсов на общественное сознание, а также вопросы фрагментации информации и диверсификации сознания. Также анализируется моральное, культурное и психологическое значение информационного потока в контексте личности, социальных групп и общества. Данное исследование помогает студентам и научным сотрудникам глубже понять формирование сознания и процессы распространения общественного сознания в цифровую эпоху.</p>
---	---

Kirish. Falsafa fanidan ma'lumki, «kategoriya» atamasi ilk bor Aristotel tomonidan «Kategoriya haqida» nomli risolada ilmiy muomalaga kiritilgan. Sharqda “Birinchi muallim” deb e'tirof etilgan Aristotel quyidagi kategoriyalarni belgilagan edi: substansiya, miqdor, makon, vaqt, sifat, munosabat va joylashuv. Ushbu kategoriyalar jamiyat va uning ijtimoiy ongini tushuntirishda ham nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Aristotel falsafasini yanada rivojlantirgan “Ikkinchi muallim” – Abu Nasr Forobiy bo'lib, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ijtimoiy hayot, sotsial guruhlarning kelib chiqishi, tarkibi va turlari, jamiyat shakllari, shahar-davlat (al-madina) va davlat boshqaruvining xususiyatlari masalalari chuqur tahlil qilingan. Forobiy shahar tushunchasini sotsial model sifatida boshqa ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bilan bog'laydi: donishmand boshqaruvchi, ezgulik, yaxshilikka yetaklovchi g'oya

va shunga o'xshash elementlar jamiyatning yaxlitligini ta'minlaydi va uni ideal jamiyatga yo'naltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Kategoriyalar – bu ijtimoiy voqelikni ifodalovchi, uning muhim sifat belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalardir. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi va dialektik aloqada shakllanadi"[1]. Kategoriyalar nafaqat mavhum umumiy tushunchalar sifatida mavjud, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki ular ijtimoiy hodisalarni bilishning asosiy bosqichlarini ifodalaydi va bu jarayon sub'ektdan ob'ektga doimiy rivojlanishda bo'ladi. Ijtimoiy borliq mohiyatini anglash va haqqoniy bilimga ega bo'lishda ijtimoiy amaliyot mezon vazifasini o'taydi.

Jamiyat hayoti ikki asosiy soha bo'yicha ko'rib chiqiladi:

1. Moddiy hayot sohasi
2. Ma'naviy hayot sohasi

Moddiy hayot sohasi ishlab chiqarishga asoslanadi va u ishlab chiqaruvchi kuchlar hamda ishlab chiqarish munosabatlarini o'z ichiga oladi, ya'ni geografik muhit, tabiiy resurslar, mehnat vositalari va texnika (oddiy teshadan tortib zamonaviy stanoklargacha), insonning malakasi, hunari va ixtisosligi, zamonaviy ilm-fan ishlab chiqaruvchi kuchlarni tashkil etsa, moddiy boyliklarga egalik qilish, ularni taqsimlash va tasarruf etish jarayonlari, mulkchilikning turli shakllari, ijtimoiy munosabatlar, texnika va texnologiya, ilmiy-texnik progress, innovatsiya, hamkorlik hamda bozor munosabatlari ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi.

Ma'naviy hayot sohasi esa ijtimoiy ong shakllarida yaratilgan boyliklarni o'z ichiga oladi: madaniyat, ma'rifat, ilm-fan, san'at asarlari. Shu sohada quyidagi asosiy tushunchalar va kategoriyalar muhim rol o'ynaydi: ma'naviyat, ruhiyat, axborot, ijtimoiy munosabatlar, axloq, din, falsafa, sotsial psixologiya, mafkura, fan va boshqalar.

Ijtimoiy ong shakllari va sivilizatsiya kategoriyalari:

Ijtimoiy ong jamiyat hayotining ma'naviy in'ikosi bo'lib, u insonlarning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlari asosida shakllanadi hamda bir necha asosiy shakllarda namoyon bo'ladi: din insonning borliq, ilohiylik va e'tiqodga bo'lgan munosabatini ifodalab, jamiyatning ma'naviy birligini ta'minlaydi; axloq kishilarning xulq-atvori, yaxshilik va yomonlik mezonlari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi; san'at voqelikni badiiy obrazlar orqali aks ettirib, estetik ong va didni shakllantiradi; ilm-fan tabiat, jamiyat va tafakkur qonuniyatlarini ilmiy asosda o'rganib, taraqqiyotning nazariy poydevorini yaratadi; siyosiy ong jamiyatdagi hokimiyat, davlat va siyosiy jarayonlarga munosabatni ifodalaydi; huquqiy ong qonunlar, huquq va majburiyatlar haqidagi tasavvurlar orqali ijtimoiy tartibni mustahkamlaydi;

falsafa esa borliq, inson va tafakkurning eng umumiy qonuniyatlarini tahlil qilib, ijtimoiy ongning nazariy va metodologik asosini shakllantiradi.

“So‘nggi yillarda ijtimoiy ongning mustaqil shakllari sifatida ekologik ong va aksiologik ong alohida e‘tirof etilmoqda, chunki ekologik ong insonning tabiatga bo‘lgan munosabati, atrof-muhitni asrash, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishni ta‘minlash zaruratini anglash bilan bog‘liq bo‘lib, global ekologik muammolar sharoitida jamiyat tafakkurining muhim tarkibiy qismiga aylangan, aksiologik ong esa qadriyatlar tizimi, ularning shakllanishi, o‘zgarishi va jamiyat taraqqiyotiga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, inson hayotida ma‘naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarning o‘rni hamda ustuvorligini belgilashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi”[2].

Ijtimoiy falsafa kategoriyalari jamiyat hayotining eng umumiy, muhim va barqaror jihatlarini aks ettiruvchi nazariy tushunchalar tizimi bo‘lib, ular ijtimoiy jarayonlar, munosabatlar va taraqqiyot qonuniyatlarini anglashda metodologik asos vazifasini bajaradi, shu bilan birga o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot nazariyasi, huquqshunoslik va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ularga xos umumiy tushunchalar, kategoriyalar va tadqiqot yondashuvlarini ham o‘zida mujassam etadi, natijada ijtimoiy voqelikni kompleks va tizimli ravishda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Ijtimoiy-siyosiy sohaga bevosita bog‘liq asosiy kategoriyalar jamiyat tuzilmasi, hokimiyat munosabatlari va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini chuqur anglashga xizmat qiladi, jumladan sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish darajasi hamda shaxs va guruhlarning ijtimoiy maqom jihatidan yuqoriga yoki pastga siljish imkoniyatlarini ifodalaydi; ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va sinflar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlar asosida shakllangan tarkibiy qismlarini belgilaydi; urug‘, qabila, elat va millatlar tarixiy-etnik birlik sifatida ijtimoiy identifikatsiya va o‘zlikni anglash jarayonining muhim omili hisoblanadi”[3]; jamiyatning siyosiy tashkilotlari, xususan davlat va partiyalar hokimiyatni amalga oshirish, boshqaruvni tashkil etish va ijtimoiy tartibni saqlash mexanizmlarini ifodalaydi; davlatning tuzilishi va tabiati — monarxiya, demokratiya, avtoritarizm, totalitarizm, diktatura kabi shakllar orqali siyosiy hokimiyatning mazmuni va amal qilish usullari namoyon bo‘ladi; islohotlar (reformalar) jamiyatni modernizatsiya qilish va yangilash vositasi sifatida maydonga chiqsa, mentalitet esa muayyan tarixiy davr va ijtimoiy muhitda shakllangan tafakkur uslubi, qadriyatlar va xulq-atvor stereotiplarini ifodalab, ijtimoiy jarayonlarning yo‘nalishi va sur‘atiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Kategoriylar tizimining rivojlanishi tarixiy taraqqiyot bilan bevosita bogʻliq boʻlib, bu jarayon falsafa tarixida aniq faktlar bilan tasdiqlanadi. Masalan, “Aristotel miloddan avvalgi IV asrda yozgan “Kategoriylar” asarida borliqni ifodalovchi 10 ta asosiy kategoriyaning (substansiya, miqdor, sifat, munosabat, makon, vaqt va boshqalar) ilmiy muomalaga kiritgan boʻlsa, oʻrta asrlarda Abu Nasr Forobiy ushbu taʼlimotni rivojlantirib, ijtimoiy-siyosiy hayotga tatbiq etdi va “Fozil shahar” konsepsiyasi orqali jamiyat, davlat va axloqiy yetuklik kategoriylarini tizimlashtirdi”[2]. Yangi davrga kelib, Georg Wilhelm Friedrich Hegel dialektik metod asosida kategoriylarni oʻzaro harakat va rivojlanish jarayonida tahlil qildi[3], Kategoriylar rivoji ikki yoʻnalishda kechadi: intensiv rivojlanish — jamiyat ehtiyojlari taʼsirida yangi tushunchalarning paydo boʻlishi (masalan, XIX asrda “sinf”, XX asrda “globalizatsiya”, XXI asrda “raqamli jamiyat” kategoriylarining shakllanishi), ekstensiv rivojlanish esa mavjud kategoriylarning mazmunan boyishi va qoʻllanish doirasining kengayishidir (masalan, “demokratiya” tushunchasining qadimgi yunon polis tizimidan zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy davlat modeligacha evolyutsiyasi). Bu jarayonda ijtimoiy amaliyot va tarixiy tajriba kategoriylarning haqqoniyligi hamda ilmiy asoslanganligining mezonini boʻlib xizmat qiladi.

Ijtimoiy ong va sivilizatsiya oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik aynan mazkur kategoriylar orqali namoyon boʻladi, chunki har bir tarixiy davr oʻzining erkinlik va zaruriyat haqidagi tasavvurlari, adolat va gumanizm mezonlari, progress va regress toʻgʻrisidagi qarashlari bilan ajralib turadi va bu tasavvurlar ijtimoiy ongning mazmunini belgilaydi. Sivilizatsiya taraqqiyoti jarayonida ushbu tushunchalar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etib, davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlar shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Masalan, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat gʻoyalari ijtimoiy ongning maʼlum darajada yetuklashuvi natijasida vujudga keladi va oʻz navbatida sivilizatsion rivojlanishning mezoniga aylanadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy fikr va ijtimoiy guruhlar faoliyati jamiyatdagi maʼnaviy-axloqiy muhitni belgilab, sivilizatsiya yoʻnalishini shakllantiradi, chunki har bir ijtimoiy qatlam oʻz manfaatlarini, ehtiyojlari va qadriyatlarini orqali umumiy taraqqiyot jarayoniga taʼsir koʻrsatadi. Natijada ijtimoiy falsafa ushbu kategoriylarni tizimli ravishda tahlil qilib, ijtimoiy ongning tarixiy shakllanishi va sivilizatsiyaning bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi hamda jamiyat taraqqiyotining istiqbolli yoʻnalishlarini nazariy jihatdan asoslaydi.

Ijtimoiy-madaniy soha kategoriylari jamiyatning maʼnaviy taraqqiyoti, qadriyatlar tizimi va sivilizatsion rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi muhim tushunchalar majmuini tashkil etadi, bunda madaniyat insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va maʼnaviy boyliklar yigʻindisi sifatida namoyon boʻlsa, ijtimoiy-madaniy borliq ushbu boyliklarning jamiyat hayotidagi real

amal qilish shakllarini anglatadi, madaniy inqilob esa qadriyatlar, tafakkur va turmush tarzida tub o'zgarishlar yuz berishini bildiradi; siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va falsafiy madaniyat jamiyat a'zolarining ong darajasi, huquqiy savodxonligi, axloqiy yetukligi, estetik didi va falsafiy tafakkur salohiyatini ifodalab, sivilizatsiyaning sifat ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi; ehtiyoj, manfaat va qadriyatlar ijtimoiy faoliyatning ichki harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, inson va ijtimoiy guruhlarning maqsad hamda intilishlarini belgilaydi; "begonalashuv, qadrsizlanish va madaniyatsizlik jarayonlari esa ijtimoiy ongning inqirozi, insonning o'z mehnati, jamiyat va ma'naviy ildizlaridan uzoqlashuvi holatini aks ettiradi:[5]; sivilizatsiya va uning turli qarama-qarshiliklari esa tarixiy taraqqiyot davomida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ziddiyat va integratsiya jarayonlarini ifodalab, ijtimoiy ongning evolyutsiyasi hamda jamiyatning global rivojlanish yo'nalishlarini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari mavjud bo'lgani sababli uning kategoriyalari ham shakllangan, aksincha, agar kategoriyalar bo'lmasa, jamiyatning taraqqiyoti va qonuniyatlari haqidagi haqqoniy bilimga erishib bo'lmaydi. Kategoriyalar bilish jarayonining vositasi, ilmiy bilimga yetaklovchi pillapoyalardir va jamiyatni tizimli tushunishda markaziy ahamiyatga ega. Bir qarashda oddiy tuyulgan jamiyat aslida ilmiy bilishning eng murakkab ob'ektlaridan biri bo'lib, uni shakllantiruvchi – xalq, oddiy mehnatkash insonlardir. Ular o'z oldiga maqsad va vazifalarni belgilaydi, manfaatlarini aniqlaydi va orzu-intilishlariga erishish yo'lida kurash olib boradi, shu bilan birga tarixda va hozirgi zamonda buyuk shaxslarning roli ham katta ahamiyat kasb etadi. Shaxsning jamiyatdagi o'rni va ta'sirini tadqiq etish ijtimoiy falsafa fanining muhim vazifasidir.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa esa jahon falsafasi va tarixiy ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy voqelikni ilmiy asosda tushuntiradi va voqea-hodisalar mohiyatini anglashda metodologik ahamiyat kasb etuvchi kategoriyalarga yangicha mazmun beradi. Ijtimoiy falsafa kategoriyalar va qonunlarni bir-biridan ajratib yoki qarama-qarshi qo'yib emas, balki ularni bir-birini to'ldiradigan, boyitadigan tizim sifatida o'rganadi[5]. Kategoriyalar real voqelikka mos ravishda shakllansa, ijtimoiy tizimlar rivojlanishi qonunlari haqida to'la va haqqoniy bilimga erishish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, jamiyat rivojlanishi qonunlari ijtimoiy falsafa kategoriyalarining ob'ektiv mazmunini tashkil etadi va ular orqali inson o'zining haqiqiy mohiyatini, insoniy sifat va qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradi. Ijtimoiy borliq va ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi hamda rivojlanish qonuniyatlari aynan shunday ijtimoiy falsafa kategoriyalarini o'rganishning markaziy mavzusini tashkil etadi.

Jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari mavjudligi kategoriyalarni ham zarur qiladi, chunki kategoriyalarsiz jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish va haqqoniy bilimga erishish mumkin emas. Kategoriyalar bilish jarayonining vositasi sifatida xizmat qiladi va ilmiy bilimga yetaklovchi bosqichlarni tashkil etadi[6]. Bir qarashda oddiy tuyuladigan jamiyat aslida ilmiy bilishning eng murakkab ob'ektlaridan biri bo'lib, uni shakllantiruvchi asosiy sub'ektlar – oddiy xalq va mehnatkash insonlardir. Ular o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yadi, manfaatlarini belgilaydi, orzu-intilishlarga yetishish uchun kurash olib boradi, shu bilan birga tarixiy va zamonaviy buyuk shaxslarning jamiyatdagi roli ham katta ahamiyatga ega. Shaxsning tarixdagi va hozirgi jamiyatdagi o'rnini tadqiq etish ijtimoiy falsafaning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa jahon falsafasi va tarixiy ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning yutuqlaridan foydalanib, ijtimoiy voqelikni ilmiy asosda tushuntiradi, voqea va hodisalar mohiyatini anglashda metodologik ahamiyatga ega bo'lgan kategoriyalarni yangicha mazmun bilan boyitadi. Ijtimoiy falsafa kategoriyalar va qonunlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yoki ajratish o'rniga ularni uzviy va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida ko'radi[7]. Kategoriyalar real voqelikka mos ravishda shakllanganida ijtimoiy tizimlar rivojlanishi qonunlari haqidagi bilimlar to'liq va haqqoniy bo'ladi. Shu tariqa, jamiyat rivojlanishining qonunlari ijtimoiy falsafa kategoriyalarining ob'ektiv mazmunini tashkil qiladi va insonning haqiqiy mohiyatini, insoniy sifat va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy borliq va ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish aynan shu kategoriyalar orqali amalga oshadi, bu esa ijtimoiy ong va sivilizatsiya tushunchalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ong shakllari va u bilan bog'liq kategoriyalar jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojini, shuningdek sivilizatsiya jarayonining murakkabligini tushunishda markaziy vosita hisoblanadi. Zamonaviy raqamli tahlil vositalari yordamida ushbu kategoriyalarni chuqurroq o'rganish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent, "O'zbekiston", 2022, - 440 bet
2. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-Toshkent: UFMJ, 2006.
3. Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2004.
4. To'rayev B.O. Tanlangan asarlar: Jild II: Ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, milliy g'oya va publitsistika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015. – 360 b

5. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. -T.: O_zbekiston, 2007.
6. Choriyev A. Inson falsafasi - O_zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2007
7. Qobulniyazova G. Falsafiy antropologiya. Darslik–Toshkent, 2021 y